



MAKTABGACHA TA'LIM BOSHQARUVI: MUAMMOLAR, MISOLLAR VA YECHIMLAR

Jalolova Nafisa O'ktam qizi

*Toshkent shahridagi Bucheon universiteti
Ta'lim menejmenti fakulteti 1- kurs magistranti*

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha ta'lim tizimining boshqarishning mazmuni asosiy muammolari hamda ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida samarali boshqaruvni tashkil etish, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, boshqaruv, tarbiyaviy jarayon, muammolar, innovatsion yondashuv, samaradorlik.*

Аннотация: *В статье анализируется содержание управления системой дошкольного образования, основные проблемы и пути их решения. Освещаются вопросы организации эффективного управления в дошкольных учреждениях, а также использования современных подходов и инновационных технологий управления.*


Ключевые слова: *дошкольное образование, управление, образовательный процесс, проблемы, инновационный подход, эффективность*

Annotation: *The article analyzes the essence of managing the preschool education system, its main problems, and ways to solve them. It highlights the issues of organizing effective management in preschool institutions, as well as the use of modern approaches and innovative management technologies.*

Keywords: *preschool education, management, educational process, problems, innovative approach, efficiency*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyoti ta'lim sifatiga bevosita bog'liqdir.

Ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantirishning eng muhim bosqichidir. Bolalik davrida qo'yilgan bilim, ko'nikma va tarbiya poydevori kelajakda butun jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan maktabgacha ta'limni samarali boshqarish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda bu sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida qamrov kengaytirilmoqda, yangi muassasalar tashkil etilmoqda, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari kengaymoqda. Ammo shu bilan birga tizimda hal etilishi zarur bo'lgan qator muammolar ham mavjud.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Statistik ma'lumotlar va holat tahlili

So'nggi o'n yillikda O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Masalan, 2017-yilda qamrov atigi 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 74 foizga yetdi. Mamlakat bo'yicha 33 mingdan ortiq maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, ulardan 20 mingdan ziyodi nodavlat sektorga tegishlidir. Bu esa davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish borasida muhim qadamdir.

2021-yilda bolalar soni 1,2 milliondan oshgan, shulardan 52,1 foizi o'g'il bolalar, 47,9 foizi qiz bolalardir. Qishloq joylarda hali ham muassasalarning yetishmasligi sezilmoqda. Bu esa tizimni boshqarishda resurslarni to'g'ri taqsimlash muammosini keltirib chiqarmoqda.

Maktabgacha ta'limni boshqarish tushunchasi

Boshqaruv-bu tizimni tashkil etuvchi barcha jarayonlarni muvofiqlashtirish, nazorat qilish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir.


Maktabgacha ta'lim boshqaruvi esa:

- Pedagogik jarayonni samarali tashkil etish,
- Tarbiyachi va ota onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish,
- Moddiy texnik bazani mustahkamlash,
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishdan iboratdir.

Boshqaruvdagi mavjud muammolar

Maktabgacha ta'limni boshqarishda quyidagi muammolar dolzarbdir:

1. Pedagoglarning ish haqqining pastligi sababli kasbga qiziqishning kamayishi.
2. Malakali tarbiyachilarning yetishmasligi, ularning bilimlarini doimiy yangilash zaruriyati.
3. Ayrim muassasalarda moddiy texnika bazasi zamon talablariga javob bermaydi, o'quv qo'llanmalar va didaktik vositalar yetishmaydi.
4. Raqamlashtirish sust rivojlanmoqda, hisobotlarni avtomatlashtirish tizimlari to'liq joriy qilinmagan.
5. Ota-onalar tarbiyachi bilan hamkorlikda ishlamaydi.
6. MTT da 1-guruhda bola soning 30 taligi.
7. Rahbarlar ko'p hollardahujjatlar bilan band bo'lib, pedagogik jarayonlarga yetarlicha vaqt ajrata olmaydi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Amaliy misollar. O'zbekistonning turli hududlarida amalga oshirilayotgan loyihalar boshqaruvdagi muammolarni yechishda muhim tajriba bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan yangi muassasalar qisqa muddat ichida minglab bolalarni qamrab oldi. Xorazm viloyatida esa nodavlat oilaviy bog'chalar sonining ortishi ota-onalar uchun qo'shimcha imkoniyat yaratdi.

Shuningdek, elektron hisobot tizimlari joriy etilishi rahbarlarning ishini ancha yengillashtirdi. Bunday tajribalarni boshqa hududlarda ham tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yechimlar va istiqbollari

Maktabgacha ta'lim tizimini samarali boshqarish uchun quyidagi chora tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

- Tarbiyachilar malakasini oshirish uchun muntazam seminarlar, onlayn kurslar va treninglar tashkil etish.

- Davlat-xususiy sheriklik asosida yangi muassasalar qurilishini rag'batlantirish.

- O'quv dasturlarini xalqaro tajribalar asosida yangilash, STEAM-ta'lim elementlarini joriy qilish.

- Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ota-onalar klublarini tashkil etish.

- Raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish: elektron kundaliklar, onlayn darslar va monitoring tizimlari.

- Hududlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish uchun resurslarni adolatli taqsimlash.


Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabda tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limni samarali boshqarish kelajak avlod tarbiyasi va mamlakat taraqqiyotida hal qiluvchi omildir. Bugungi kunda tizimda qamrovning kengayishi, yangi muassasalar qurilishi va innovatsion loyihalarning amalga oshirilishi ijobiy natija bermoqda. Shu bilan birga, kadrlar, sifat, tengsizlik va raqamlashtirish muammolari o'z yechimini kutmoqda. Agar bu masalalarga kompleks yondashilsa, maktabgacha ta'lim tizimi yangi bosqichga ko'tariladi va bolalarning barkamol shaxs sifatida rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori. — Toshkent, 2019.

2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: Adolat, 2020.

3. "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" (2019–2030 yillar). — Toshkent: Maktabgacha ta'lim vazirligi nashri.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

4. Abdullayeva, G. (2021). Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Xolmatova, D. (2020). Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar va boshqaruv mexanizmlari. — "Ta'lim va innovatsiya" jurnali, №3, 45–52-betlar.
6. Karimova, N. (2022). Maktabgacha ta'limda samarali boshqaruvni tashkil etish yo'llari. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. UNESCO (2022). Early Childhood Care and Education: Global Report. — Paris: UNESCO Publishing.
8. OECD (2023). Early Learning and Child Well-being: Policies and Practices for Preschool Education. — Paris: OECD Publishing.
9. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy veb-sayti: <https://preschool.edu.uz> (mavjud ma'lumotlardan foydalanildi).
10. World Bank (2021). Improving Preschool Education in Uzbekistan: Policy Note. — Washington D.C.: The World Bank Group.

